



ISAJON SULTON VA NORMUROD NORQOBILOV ASARLARINING ABDIIY TAHLILIDA BOSH G'OYA MASALASI

Maxsutbaeva Nigora Rashid qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10958457>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Isajon Sulton va Normurod Norqobilov asarlarining adabiy-badiiy tahlilda asarlarning bosh g'oyasi masalasida qalamga olingan. Shu bilan birgalikda asarni tahlil etishda Normurod Norqobilov asarlarining modern va milliy ruhda shakllanishiga urg'u berilgan. Isajon Sulton asarlarida milliy xalqni ruhning shakllanishi shu bilan birgalikda "todd" hikoyasi "ozod" romani va mana shu kabilarning shakllanish tarixlari inobatga olingan va har ikkala ijodkor asarlari taqqoslangan.

KALIT SO'ZLAR: Milliy ruh tushunchasi, epik asar, bosh obraz, kommunikativ aloqa, hayvon psixologiyasi, tasvir uslubi.

ANNOTATION: In this article, Isajon Sultan and Normurod Norqabilov's works are analyzed in terms of the main idea of the works. At the same time, in the analysis of the work, emphasis is placed on the formation of Normurod Norqabilov's works in a modern and national spirit. In the works of Isajon Sultan, the formation of the spirit of the national people, together with the story of "Todd", the novel "Azod" and the like, are taken into account, and the works of both artists are compared.

KEY WORDS: Concept of national spirit, epic work, main image, communicative connection, animal psychology, image style.

Bugungi kunda maktab darsliklarining integratsiyalashgan tartibda chop etilishi asnosida adabiyot sohalari, badiiyyat ilmi ham yanada rivojlanishiga hech shubha yo'q. "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqaror va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizda mavjud uzluksiz ta'lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o'smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo'lga qo'yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o'tkir zaruriyatga aylanmoqda. Aynan ta'lim tarbiya va ma'rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi. Uzluksiz ta'lim tizimida





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim", - degan edi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.[1]

Bugungi kunda ta'lim ishini tashkil qilish va bu borada amalga oshirilayotgan tub islohotlarning bosh asosi, sifatli ta'lim shakllarini tashkil etishdir. Bu borada darsliklar tizimining yangi tartibda tahrir etilishi ham buning yorqin dalilidir. Dono xalqimizda bir gap bor: "Adabiyot yashasa, millat yashaydi". Haqiqatdan ham, ma'naviyati yuksak, aqliy salohiyati yetuk bo'lgan xalq vakillarigina o'z vatanini rivojlanish sari boshlay oladi. Bu yo'lda esa ta'lim, tarbiya ca ko'nikma masalalarining ham o'rni kattadir. Shu asosda adabiyot darslarini ta'lim bosqichlarida namunali tashkil etish, o'quvchilarning kundalik hayot va jamiyatga nisbat terak ko'z qarashlarini shakllantirishda adabiyot, badiiyat olamining ta'sir kuchi nihoyatda kattadir.

O'zbek adabiyotida hikoyachilik yoki asarlarni tahlil qilishda Normurod Norqobilov va Isajon Sulton asarlarida g'oyaning ikkilamchi rolda shakllanishini guvoh bo'lishi mumkin. Normurod Norqobilov o'z asarlarida xalqona tilva folklor annalarini unumli foydalangan bo'lsa, on sulton ham o'zbek milliy qadriyatlarining o'z asarlarida bevosita hikoyalarda yaqqol tasvirlab beradi. Isajon Sultonning qismat hikoyasi todd hikoyasi mana shunday hikoyalardan biridir. Normurod Norqobilovning esa hayvonlar psixologiyasining bosh omil va bosh mavzu sifatida tanlanishi ikkinchi planda esa, xalq hayotining xalq obrazlarini tasvirlanishi bilan birgalikda Isajon Sulton asarlarini yaratilishseliga o'tib ketadi. Shu bilan birga Isajon Sultonning do'st hikoyasini tahlil qilar ekanmiz hikoyada jamiyatdagi faoliyat turlarining anglashilishi xotira tasvirlarning yuzaga kelgan. Isajon Sultonning xarakterli xususiyatlarga ega bo'lgan bir yozuvchi sifati ekanligini ochib beradi. Normurod Norqobilov esa ayni to'g'ridan-to'g'ri kitobxonga ma'lum bir masala yuzasidan muammoli vaziyat keltirmasada ayni hikoyaning badiiy stil orqali kitobxon qalbida bir fikr va tuyg'ularni shakllantirishga olib keladi. Bu esa asarning o'qilish darajasini ommabop tarzda ko'tarishga yordam beradi." Isajon Sulton yoridan ayrilgan Yusufning boshi oqqan tomonga ketib qolib qishloqqa ko'rinmay qolish holatini xalq og'zaki ijodi qahramoni Majnunning boshiga ishq savdosi tushganida uzoqlarga bosh olib ketgani holatiga yaqinlikda beradi, xalq ijodi asari syujetiga yaqinlashtiradi. Badiiy so'z san'ati taraqqiy etib boruvchi estetik hodisa sifatida tabiat, jamiat, hayot va inson ruhiy olamining turli murakkab qatlamlariga kirib boradi. Biz bilamizki, adabiyotda zamon ruhi degan tushuncha bor. U har bir zamon kishisini chetlab o'tishi mumkin emas. Hozirgi XXI asr kitobxonini Navoiy, Rumi, Gyote asarlari to'la qiziqтира oladi deb ayta olmaymiz. Ruhi





ITALY



ITALY

poklanishni istayotgan, o'zligini tanishga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgan insonlargina bunday asarlarni o'qishga o'zida ehtiyoj sezadi. Umarali Normatovning bu xususda juda chiroyli bir o'xshatishi bor: „Navoiy ijodini tashbehan ulkan bir dengiz deb olsak, uning yuza qismida o'sha davr kayfiyati mavjud bo'lib, bu qatlam zamondosh o'quvchi uchun go'yo muzlab qolgan . Vaholanki, yuzadagi ana shu muz qatlami parchalanib ichkari tushilsa, ulug' shoirning barcha zamonlarga aloqador dahosi yuz ochadi “ , deydi.[2]

O'zbek adabiyoti o'zining yorqin ijodiy salohiyatga ega bo'lgan ijodkorlariga boy ekanligi bilan ham ajralib turadi. Mana shunday ijodkorlar orasida Normurod Norqobilov ijodiy mahorati, so'z qo'llash mahorati, mavzu ko'lamining davr va shaxs munosabatlari voditasida yuzaga kelishi bilan ham ajralib turadi. Bu borada esa, maktab darsliklarining yangi tahriri tarkibida ko'plab ijodkorlar qatori Normurod Norqobilovning ham ijodiy faoliyati taqdim etilgani ahamiyatlidir. Maktab o'quvchilariga mavzu doirasida ijtimoiy jamiyat muammolari va ifodalanayotgan mavzuning adabiy-badiiy xususiyatlarini ifodalab berishda reallik, ifodaviylik, badiiy detallar katta rol tutadi. Normurod Norqobilov esa o'zi ijodiyotining ifodalanishida tabiat tasviri, hayvonot olamining yorqin planda ifodalanishini mahorat bilan yoritib berish xususiyatiga egadir. Ayni ushbu mavzu ko'lami yuzasidan ijod qilgan shaxslar O'zbek adabiyotida ko'pchilikni tashkil etadi, biroq, Normurod Norqobilovning ijodiy faoliyati esa insonlarga xos bo'lgan xarakter xususiyati, ijtimoiy jamiyatga nisbatan munosabat shakllari, xatti-harakat shakllarining hayvonot olamiga ko'chirilishi nilan o'ziga xoslikni tashkil etadi.

Bugungi kunda Normurod Norqobilov ijodiyotining o'rganish, faqatgina O'zbekiston, yoki Qoraqalpog'iston bilan cheklanib qolmasdan balki, qozoq maktablari, qirg'iz maktablarida ham boshlang'ich sinflar darsliklarga kiritilgan. Ayni O'zbekiston hududida ijodiy muhitda voyaga yetgan, mana shunday Normurod Norqobilov kabi ijodkorlarning dunyo tan olishi, bu katta bir hodisa demakdir. Keyinchalik esa, Normurod Norqobilovning ijodiy asarlari televideniya uchun kino- filmlar yaratishga ham asos bo'ladi. Uning hattoki, “Quyosh botmaydigan yurt”, “Belbog’”, “Shim yoxud xotinlar janjali” kabi videofilmlari, uning asarlari tarkibida voqealar rivoji yuzasidan suratga olinadi.

Bu ham Normurod Norqobilov ijodiyotning o'rganishi, katta bir vosita hisoblanadi. Har bir ijodkor o'zining yozish stiliga, badiiy ifodani talqinlar bilan keltirilishi, qolaversa, turli detallarni tabiat, jamiyat, hayvonot olami bilan bog'lashi bilan ajralib turadi. Aynan Normurod Norqobilov asarlarida ham Shukur Xolmirzayev asarlarida uchraydigan tarzda, tabiat va jamiyat o'rtasida



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

insonlarning uzviyligi prinsipial bog'liqligi mavjuddir. Ushbu bog'liqlik esa, asarning ko'tarinki ruhda ekanligi sarguzasht fonini oshirishga xizmat qiladi. "Asar kompozitsiyasi Ozodning Oydin qizga baxt lolasini olib kelish uchun safarga chiqishidan boshlanadi. Qahramon zimmasidagi vazifa kechga qadar lolani olib kelish: "Tushgacha yetib boraman, cho'qqilarga chiqib-tushgunimcha yana biroz vaqt o'tsa, shomga qadar izimga qaytsam kerak". Yo'l umrga ishoradir. Shom umrning poyoni, lola esa farovon va to'kin hayot ramzidir. Kimki lolaga yetsa, uning hayoti baxt-saodatga to'ladi. Bu ezgu niyatga asoslangan tushuncha asrlar osha xalq orasida an'anaga aylanib ketgan. Odamlar bunga ishonadilar va har bir bo'yi yetgan yigit albatta mo'jizakor lolani olib kelish haqida o'ylaydi: "Minglar u mahal baquvvat, chayir, o'ktam yigit edi, mana shu ayoliga fотиha qilinganida qoyalar-u o'ngirlar osha borib, taqdir lolasini uzib kelgan, deydilar".[3]

Maktab oquvchilarining 7-sinflariga Normurod Norqobilovning hayoti va ijodini tanishtirish, o'rgatish borasida, faqatgina axborot va maruza shakllardan foydalanib qolmasdan balki, darsdan tashqari, mashg'ulotlar davomida ham, ijodkorimizning kundalik hayotda erishgan yutuqlari, ish faoliyati erishilgan yutuqlari bilan tanishtirish, bugungi davrning dolzarb masalalarida biri hisoblanadi. Qolaversa, maktab oquvchilariga talimiy dars berishda, salbiy va ijobiy obrazlarni farqlash, ijodkorimizning asarlar tarkibida keltiriladigan personajlar, qahramonlarning bugungi hayot bilan aloqadorligi, ya'ni mavzuning dolzarblik darajasini o'rgatish va ularga nisbatan fikr, munosabat shakllarini bildirishiga o'rgatish, bugungi davrning ta'lim jarayonidagi eng katta dolzarb vazifalaridan biridir. Fanlar va integratsiyani yo'lga qo'ygan holatda, Normurod Norqobilov ijodiy faoliyatini geosiyosiy maydonlarda, yurtimiz bo'ylab joylashgan turli xil geografik hududlar vositasida, amalda qo'llash, o'rganish, tadqiq etish katta rol o'ynaydi. Qolaversa, chet el, ta'lim tizimlari, ya'ni qozoq, qirg'iz maktablarini qo'llanilayotgan Normurod Norqobilovning asarlarini biz tahlil qilishimiz, yangi dunyo hamjamiyati bilan birgalikda, yuz tutgan, yuzlashgan holatda o'qib, o'rganishimiz, bugungi kunning dolzarb masalalarni biridir. Mavzuning dolzarbliigi yuzasidan ijodkorlik qissalari, ekspeditsiya ruhidagi "Ichagiozor itatoq odami", "Ovul oralagan bo'ri" nomli qissalari ham yaratilish tarixi va mavzuning dolzarbliigi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. -Toshkent: "O'zbekiston" nashryoti, 2022





SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



2. Zilola Eshtemirovna Niyazova Zilola Eshtemirovna Niyazova. isajon sulton hikoyalarida milliy madaniyatimiz – xalq og`zaki ijodimiz unsurlarining akslanishi. scientific progress – 2021
3. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 3, 9-13.

